

“PARALINGVISTIKADA MULOQOT VA UNING SHAKILLARI”

Farg'ona davlat Universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Asqaraliyeva Xayotxon Akbarali qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tilshunoslikning yangi yo'nalishlardan bo'lgan Paralingvistikaning nazariy asoslari tadqiq ostiga olingan. Shuningdek, muloqot, muloqot shakllari hamda muloqot tushunchasi, mazmuni, maqsadi, vositalari, va uning turlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotive, konativ.

Paralingvistika (yunon tilida “para” – atrofida va “linguistics”– lingvistika so'zlaridan olingan)

1) nutqiy aloqada verbal vositalar bilan birga qo'shimcha axborot berish uchun mo'ljallangan noverbal (verbal tilga oid bo'lmagan) vositalarni o'rganishni o'z ichiga olgan tilshunoslik bo'limi;

2) nutqiy muloqotda foydalaniladigan noverbal vositalar umumiyligiga aytiladi. Tilshunoslikning o'zaro aloqa-aralashuvda imo-ishora, mimika, nutq vaziyati kabi omillarni o'rganuvchi sohasi.

Muloqot insonning ijtimoiy, ongli mavjudot sifatidagi, ong tashuvchi sifatidagi ehtiyojdir. Turli yuksak hayvonlar va odam turmush tarzlarining ikki taraf: tabiat bilan aloqalar va tirik jonzotlar bilan aloqalarga ajralishini kuzatamiz. Birinchi tur aloqalar odam faolligining maxsus turi sifatidagi faoliyat deb nomlangan. Ikkinchi tur aloqalar bir-birlari bilan o'zaro ta'sirlashuvchi tomonlar axborot almashinuvchi tirik jonzotlar ekanligi bilan belgilanadi. Tur ichidagi va turlararo bunday aloqalar turi muloqot deb ataladi.

«Muloqot» tushunchasining turlicha ta'riflari mavjud. Muloqot ikki yoki undan ortiq odamlar o'rtasidagi bilish yoki affektiv-baholash xususiyatiga ega bo'lgan axborot almashinuvida ularning o'zaro ta'sirlashuvi sifatida ta'riflanadi.

Yoki: muloqot – odamlar o‘rtasida hamkorlik faoliyati ehtiyojidan yuzaga keladigan va axborot almashinuvi, o‘zaro ta’sirning yagona yo‘lini ishlab chiqish, boshqa odamni idrok qilish va tushunishdan iborat bo‘lgan aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning murakkab, keng qamrovli jarayoni. Bu «muloqot» tushunchasining eng to‘liq va aniq ta’rifidir. Muloqot barcha tirik jonzotlarga xosdir, lekin odam darajasida u eng takomillashgan shakllarga ega bo‘ladi, nutq vositasida anglanadi. Muloqotda quyidagi nuqtai nazarlar ajratiladi: mazmun, maqsad va vositalar.

Til – shartli belgilar tizimi bo‘lib, ularning yordamida odamlar uchun muayyan ma’noga va mazmunga ega bo‘lgan tovushlar yig‘indisi uzatiladi. Nutqda alohida insonning ruhiyati ifoda topadi. Nutq xususiy jihatdan alohida shaxsga xos bo‘lib, unda alohida olingan insonning psixologiyasi aks etadi, til esa hamma uchun bittadir. Nutq orqali bildirilgan ishoralar yordamida muayyan predmet, harakat, holat va h.k. ifodalanadi. So‘z esa, predmet yoki hodisa to‘g‘risidagi tasavvur bilan bog‘liq.

Umumlashtirish funksiyasi har bir so‘z umumlashtirish xususiyatiga ega ekanligi bilan bog‘liq, bu esa tafakkurning yuzaga chiqishiga imkon yaratadi. Fikr almashuv, ya’ni muloqot muayyan ma’lumotlarni, fikrlarni, tuyg‘ularni odamlar bir-birlariga etkazib berishdan iborat bo‘lgan jarayondir. Inson nutqining aniqligi cheklangan miqdordagi nutqiy belgilar – turli murakkablikdagi tarkibiy qismlar (tovushlar, bo‘g‘inlar, so‘zlar va gaplar) yordamida insonning cheksiz-chegarasiz turli-tuman fikrlarini, maqsadlarini va tuyg‘ularini ifodalash imkonini beradi.

Muloqot mazmuni – bu individualliklararo aloqalarda bir tirik jonzotdan ikkinchisiga etkaziladigan axborot. Muloqot mazmuniga tirik mavjudotning ichki motivatsion yoki emotsional holati haqidagi ma’lumotlar kirishi mumkin. Muloqot orqali bir tirik mavjudotdan ikkinchisiga, tirik mavjudotni ma’lum tartibda aloqaga kirishishga yo‘naltiruvchi, ularning emotsional holatlari (mamnunlik, shodlik, g‘azab, qayg‘u, hijron va shu kabilar) haqidagi ma’lumotlar o‘tishi mumkin. Bunday axborot odamdan odamga etkaziladi va shaxslararo aloqalar o‘rnatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Muloqot maqsadi – bu insonda ushbu faollik turi yuzaga keladigan sabab.

Hayvonlarda muloqot maqsadi bo'lib boshqa tirik jonzotni ma'lum harakatga chorlash, u yoki bu harakatni amalga oshirmaslik kerakligi haqidagi ogohlantirish xizmat qilishi mumkin. Masalan, ona o'z tovushi yoki harakati bilan bolasini xavfdan ogoh etishi mumkin; podadagi ba'zi hayvonlar boshqalarni ularga hayotiy muhim daraklar etib kelgani haqida ogohlantirishlari mumkin.

Odamda muloqot maqsadlari soni ko'payadi. Ularga yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari, dunyo haqidagi bilimlarga ega bo'lish va etkazish, ta'lim va tarbiya, odamlarning hamkorlik faoliyatlaridagi turli harakatlarning muvofiqlashuvi, shaxsiy va ish bo'yicha o'zaro munosabatlarning oydinlashtirilishi, o'rnatilishi va boshqalar ham kiradi. Agar hayvonlarda muloqot maqsadlari ular uchun dolzarb bo'lgan biologik ehtiyojlarni qondirishdan iborat bo'lsa, odamlarda ular ko'plab turli: ijtimoiy, madaniy, bilish, ijodiy, estetik, aqliy o'sish, ahloqiy rivojlanish kabi ehtiyojlarni qondirish vositasi bo'lib hisoblanadi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi. Muloqotning shaxslararo tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bog'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi. Muloqotning kognitiv tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, unlan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'pgina savollarga javob berish imkonini beradi. Muloqotning kommunikativ-axborotli tomoni tasavvurlar, g'oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllar va sh.o'.lari turlicha bo'lgan odamlar o'rtasidagi almashinuvdan iborat. Muloqotning emotiv tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg'ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog'liq.

Muloqotning konativ (hulq-atvor tomondan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Psixologik nuqtayi nazardan olimlar muloqotni 5 ta: moddiy, kognitiv, konditsion, motivatsion va faoliyat turlariga ajratishadi. Maqsadiga ko'ra esa biologik va ijtimoiy ko'rinishlarga bo'linadi. Shuningdek, muloqot ishbilarmonlik va shaxsiy turlariga ham ajraladi. Lingvistik nuqtayi nazardan esa muloqot asosan verbal va noverbal

turlariga bo‘linadi. Professor I.Yildirim muloqot turlarini verbal muloqot (sözlü iletishim), noverbal muloqot (sözsüz iletishim) va yozuv muloqoti (yazılı iletishim) guruhlariga, inglizabon mamlakatlarida esa ular verbal, noverbal, yozuv, tinglash va kuzatuv muloqot turlariga ajratib chiqilgan. O‘z navbatida, muloqotning shaxsiy, shaxslararo, guruh va ommaviy shakllari ham mavjud.

Zamonaviy tilshunoslikda ularning safini media-kommunikativ, kompyuter, mobil va internet muloqotlari bilan to‘ldirish mumkin bo‘lib, ular tilshunoslikning yangi yo‘nalishlarini tashkil qiladi. Muloqot vositasiga ko‘ra bevosita va bilvosita ko‘rinishlariga ajralib, bunda jonli mavjudotning tabiiy organlari yordamida, ya’ni tana a‘zolari va tovushi yordamida axborot ayirboshlasa – bu bevosita, agar muloqotni tashkillashtirish va ma’lumot almashishda maxsus qurol va vositalardan foydalanilsa – bu muloqot bilvosita deyiladi.

Muloqot jarayonida paralingvistik vositalar kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qo‘shimcha vositalar sanaladi va ular aloqa aralashuvda ma’lum axborotni uzatish, mazmunan to‘ldirish, aniqlik kiritish kabi vazifalarni bajaradi. Kishi jonli so‘zlashuv nutqida fikrning emotsionalligini hamda ta’sirchanligini oshirishda muhit va sharoitdan kelib chiqib tilga yondosh bo‘lgan noverbal vositalardan foydalanadi. Ma’lum axborotni tinglovchiga yetkazish jaryonida qo‘l, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-past, cho‘ziq, to‘xtalib talaffuz qilinishi orqali ham ma’lum ma’no ifoda etiladi.

Pedagogik muloqot — pedagogik ta’siming ajralmas sifatidir. Bu o‘qituvchi va o‘quvchining ta’lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo‘lib, unda ma’lumot almashinadi va o‘quvchilarga o‘quvtarbiyaviy ta’sir o‘tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida o‘zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O‘quvchilar ham o‘qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta’sirning samarali yo‘li bo‘lib, tajribali pedagoglar bolaning o‘z-o‘zini hurmatlashiga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu orqali o‘zaro munosabatlarni amalga oshiradilar.

Noverbal vositalarning nutq jarayonida ishtirok etishi va so‘zlovchi

kommunikativ maqsadiga bog‘liq holda turli ma’no nozikliklarini ifodalashi, bir tomondan, uning pragmatik vazifasi bilan, ikkinchi tomondan esa til sohibining madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Noverbal vositalarning qo‘llanish sababi, vazifasi, nutq vaziyatiga munosabati, pragmatik samarani yuzaga keltirishdagi rolini aniqlash lingvomadaniyatshunoslik to‘g‘risida ham fikr yuritishni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullayeva R.R., Bobokalonov R.R. *Neypsixolingvistika: lingvistik shaxs va xarizmalı inson. Globedit, Kshinyov, 2023*

2. Бобокалонов Р.Р. *Нутқий ҳосила, семиотик белги, дискурс ва нейрпсихоллингвистик ҳолат. Монография, GlobeEdit, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023* 234 с. ISBN 978-620-0-64729-0.

3. Бобокалонов Р.Р. *Неразрывная связь семиотики и нейрпсихоллингвистики. Монография, Lambert Academic Publishing, Chisinau, Moldavia-Europe, 2023. 156 с. ISBN: 978-620-6-16018-2.*

4. Гафуров Б. З. *Отнинг сегмент фоностилистикаси тавсифининг қиёсий чоғиштирама ўрганилиши. Филол. фан. бўйича фалс. доктори (PhD) диссерт. автореферати. Бухоро – 2020.*

5. Равшанов М. *«Номинатив бирликларнинг семиологик ва лексикографик тавсифи» 10.00.11. DSc..Fil.05.02. дисс. (DSc). Фарғона, 27.06.2017*